

TA'LIM TURLARI VA TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Bayjonov Furqat Baxramovich

Alfraganus Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedراسи dotsent v.b

Muslimova Muxlisa Sa'dulla qizi

Alfraganus Universiteti 2-kurs talabasi

muxlisa6475@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim to'g'risida xususan ta'limning shakllari: maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus, o'rta maxsus, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya, ta'lim turlari: individual, sinf-dars, ma'ruza, seminar va amaliy darslarning o'ziga xosliklari, ta'limni tashkil etish, ta'lim shakllarining yutuqlari va kamchiliklari to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *kreativ, ta'lim-tarbiya, ta'lim to'g'risidagi qonun, maxsus ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье речь идет об образовании, в частности о формах образования: дошкольное образование и воспитание, общее среднее и среднее специальное, среднее специальное, профессиональное образование, высшее образование, послевузовское образование, внешкольное образование, виды образования: индивидуальное, класс-урок, лекция, семинар и особенности практических занятий, организация обучения, достижения образовательных форм и недостатки описаны подробно.*

Ключевые слова. *творчество, образование, закон об образовании, специальное образование.*

Abstract. *This article provides detailed information about education, in particular, the forms of education: preschool education and upbringing, general*

secondary and secondary specialized, secondary specialized, vocational education, higher education, post-higher education, out-of-school education and upbringing, types of education: individual, classroom, lecture, seminar and practical classes, the characteristics of the organization of education, the achievements and shortcomings of the forms of education.

Keywords. *creative, education and upbringing, law on education, special education.*

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi. Ta'lim turlari (yunoncha "species" alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlardir. Ta'lim - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'lim bu rivojlanishning asosi, mamlakatning tayanchi hisoblanadi. Ta'limni to'g'ri tashkil etish muhim. Dars jarayonida ma'ruza va seminar darslarini maroqli olib borish kerak. Chunki hozir rivojlangan asr yoshlari internet tarmoqlaridan ko'plab ma'lumotlar olishadi. Darslarni avvalgi tartibda o'tish o'quvchilarni zeriktiradi bu esa ta'lim sifatini tushuradi. Shuning uchun ham ma'ruza darslariga kreativ yondashish kerak, seminar darslarida o'quvchilarni o'zlarini erkin tutishlari va bilimni bemalol yetkazib berishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berishi kerak

“O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya. Xalq ta'lim tizimida birinchi bosqich - maktabgacha ta'lim va tarbiyadir. Uning asosiy vazifasi bolalarni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalash, ularni maktabga ham pedagogik, ham psixologik tayyorlashdan, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim o'rta ma'lumot olishni ta'minlaydi, zamonaviy bilimlar beradi.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lim Umummaktab ta'limida boshlang'ich ta'limning ahamiyati juda muhimdir. Ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni

shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

O'rta maxsus ta'lim. Akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi yoshlarni mehnat va kasbkor ko'nikmalariga o'rgatish, ishchi hodimlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorgarlikdan o'tkazishdir.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning

murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim. Xalq ta'limi tizimida muhim o'rin egallab, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotni belgilab beradi. Xalq xo'jaligi va madaniyatning turli sohalarini yetuk oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim), o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar

uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga asoslangan bolalar va o'smirlarning ehtiyojlarini, xohish-istaklarini to'laroq ro'yobga chiqarish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida davlat muassasalari, turli mulk shakllariga ega nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Ta'limni tashkil etish shakllari. Ta'lim shakli - ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi. O'quv yurtning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Ta'lim kishilik jamiyati rivojining dastlabki davrlaridayoq katta rol o'ynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan. Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish. Ularning tarbiyaviy mohiyatini ochib berish masalalariga bag'ishlangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf - dars tizimini yaratdi.

Tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan buyon 350 yil o'tdi. Shuncha vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib bordi. Ya. A. Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Ya.A.Komenskiy “ Buyuk didaktika” asarida, o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning Yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Ta'limni tashkil etish shakllari;

- Individual.
- Sinf-dars.
- Seminar va amaliy tajriba.

Ta'lim shakllarining yutuqlari va kamchiliklari.

Individual ta'lim shakli bir qancha yutuqlarga ega. Ushbu ta'lim shaklida o'quvchining bilim darajasi, salohiyati, o'zlashtirish ko'rsatkichidan kelib chiqqan holda dars jarayoni tashkillashtiriladi. Dars jarayoni uchun ajratilgan unumli foydalaniladi. Yakkama yakkam dars o'tish jarayonida, o'quvchining qaysi mavzularda oqsayotgani va qaysi sohada muvaffaqiyatga erishayotganini nazoratga erishayotganini bemalol kuzatish mumkin. Ammo ushbu ta'lim shaklining ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Masalan, o'quvchi individual ta'lim shaklida tez zerikib yoki charchab qolishi omma oldida o'z nutqini erkin ifoda etolmaydigan, raqobat va musobaqa ruhida tarbiyalanmagan bo'lib qolishi mumkin. Barchaga ma'lumki, har bir o'quvchi o'zidan yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi bor bo'lsagina o'sha o'quvchiga havas qilib yoki undan o'zib ketish maqsadida ham Aybu-jon-jahdi bilan o'qiydi.

Sinf-dars ta'lim shakli ham bir qancha ijobiy tomonlarni o'zida qamrab oladi. Birinchidan, ushbu ta'lim shakli guruh bo'lib dars o'tishga mo'ljallangan. Shunga ko'ra dars jarayoni musobaqa tarzida amalga oshiriladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quvchi o'zidan yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchidan o'zib ketish maqsadida ham o'qiydi. Raqobat bor yerda rivojlanish bo'ladi. Bundan tashqari, dars jarayoni ham qiziqarli bo'ladi. O'quvchilar jamoa oldida fikrini ifodalashga harakat qiloladi. Ammo, bu ta'lim shaklining ham kamchiliklari mavjud. Sinf ko'p miqdordagi o'quvchilardan tashkil topganligi sababli ajratilgan vaqt barcha o'quvchilar bilan birdek ishlashga yetmaydi. Sinfda bilim ko'rsatkichi turli xil bo'lgan o'quvchilarning bo'lganligi sababli, o'quv materiallari o'rta darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Bundan past va yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar aziya chekishi mumkin. O'qituvchi *sinf-dars ta'lim* shaklida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini birdek jalb etib, tutib turolmasligi mumkin, lekin individual ta'lim shaklida buni bemalol uddalash mumkin.

Seminar va amaliy ta'lim shaklida ham o'quvchilar guruh holda bo'lishadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar aktiv, o'qituvchining esa passiv bo'lishi talab etiladi. Ya'ni, bu jarayonda o'quvchilar o'qigan va o'zlashtirgan ma'lumotlarini amalda tadbiiq etishadi. Hozirgi kunda o'quv muassasalarida ushbu uuldan keng foydalanilmoqda. Ko'proq talaba va o'quvchilarning o'zlarinini o'qishga va izlanishga undab, um amalda dars jarayonida namoyon etishini talab qilgan holda yaxshi natijalarga erishilmoqda. Chunki shu narsa ma'lumki, inson eshitgan narsasining 5% ini, o'qiganining 10% ini tajribada sinab ko'rishi orqali ma'lumotning 40% ini, boshqalarni o'qitish orqali esa 90% ma'lumotni eslab qolishi mumkin ekan. Shu sababli dars jarayonida o'quvchilarning mavzu yuzasidan tayyorlanib kelib, shu mavzu bo'yicha o'z sinfdosh va guruhdoshlariga dars o'tib, prezentatsiya qilib bersa, o'z bilimini ham mustahkamlab oladi. Seminar va amaliy-tajriba ishlar shaklidagi mashg'ulotlar. Seminar mashg'ulotlari o'quvchilarning mavzudagi muhim masalalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo'lib muhokama qilishini tashkil etish shaklidir. Mavzu o'rganilgunga qadar o'qituvchi o'quvchilar uchun savol va

topshiriqlar tuzib chiqadi. Kirish mashg'ulotida u o'quvchilarni materialning mazmuni, qilinadigan ishning xarakteri bilan qisqacha tanishtiradi, ularga har qaysi seminar uchun topshiriq beradi va tayyorlanish uchun adabiyot ko'rsatadi. Bir xil vazifalar hamma uchun umumiy bo'ladi, boshqa vazifalar ayrim o'quvchilarga yoki 3 - 4 kishidan tuzilgan guruhga beriladi. Bunda hamma o'quvchilar seminar uchun dasturdagi majburiy materiallar minimumini ishlab chiqishlari kerak. Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotni o'rganadilar, material yig'adilar, har xil kuzatishlar o'tkazadilar, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar. Seminarlar o'qish vaqtida o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlar miqdori mavzuning mazmuniga va uni o'rganish uchun ajratilgan vaqtga bog'liq. O'quvchilar mashg'ulotlarda axborot beradilar; ularga turli xil namoyish etiladigan narsalarni ilova qiladilar. Masalani muhokama qilishda hamma o'quvchilar ishtirok etishadi. Seminarga puxta tayyorlanish uchun o'qituvchi ayni bir vazifani hammaga yoki bir necha o'quvchiga berishi, ma'ruzachini esa mashg'ulot boshlanishida tayinlashi mumkin.

Ta'limning bunday mashg'ulotlarini tashkil qilish ikki xil yo'l bilan olib boriladi:

1. Amaliy tajriba mashg'ulotlari.
2. Ekskursiyalar.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiylashish, shaxs rivojlanishi hamda tarbiya berish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rganish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim turlari va shakllarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning imkoniyatiga qarab yondashish orqali ularni to'g'ri ta'lim yo'nalishlariga qarab ularni ehtiyojlari, maqsadlari va imkoniyatlariga mos holda o'qitilishi kerak. Har bir ta'lim shakllarining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bo'lib, ularni samarali qo'llay olish o'qituvchi va ta'lim tizimining tajribasiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D.B.Norqo‘ziyev, F.B.Bayjonov, M.B. Ongarov Pedagogika nazariyasi va tarixi 2024-yil.
2. M.Tashibekova, M.Nishonov, Q.Shodmonov Umumiy pedagogika 2023-yil.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov Umumiy pedagogika 2018-yil.